SAMARQAND VILOYATI BULUNG‘UR TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 12-fevral | 41-7-93-Q/25 | Bulung‘ur tuman hokimligi

Samarqand viloyati hokimining 2025-yil 8-fevraldagi 38-7-0-Q/25-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-yanvardagi “Xotin-qizlarning pillachilik sohasidagi bandligini bosqichma-bosqich ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 46-son qarori ijrosini ta’minlash haqida”gi qarori to‘g‘risida

Tumanimizda pillachilikni yanada rivojlantirish, sohada ishlash istagida bo‘lgan aholini, shu jumladan, xotin-qizlarni qisqa muddatli o‘quv kurslarida o‘qitish va ularning ushbu sohada bandligini ta’minlash orqali qishloq joylarida aholining farovonligini oshirish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Samarqand viloyati hokimining 2025-yil 8-fevraldagi 38-7-0-Q/25-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-yanvardagi “Xotin-qizlarning pillachilik sohasidagi bandligini bosqichma-bosqich ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 46-son qarori ijrosini ta’minlash haqida”gi qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xotin-qizlarni pillachilik sohasida qisqa muddatli o‘quv kurslarida o‘qitish ularning sohada bandligini bosqichma-bosqich ta’minlash tizimini tashkil etish bo‘yicha “yo‘l xarita” **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman hokimining o‘rinbosari (N.Mamadiyarova), tuman maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi (O.Jangirov), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (M.Rustamov)lar tuman “Zar Oltin Pilla” MChJ (B.Mamarajabov) bilan hamkorlikda yo‘l xaritada belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va belgilangan tartibda ijrosini ta’minlasin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Buriboyev), tuman maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi (O.Jangirov), mahalla raislari bilan birgalikda “Xotin-qizlarning pillachilik sohasida qisqa muddatli o‘quv kurslarini tashkil etish uchun vaqtinchalik ajratiladigan o‘quv joyi manzilining ro‘yxati”ga muvofiq binolardan vaqtinchalik joy ajratish va zarur sharoitlar yaratish choralarini ko‘rsin.

5. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (M.Rustamov), tuman Soliq inspeksiyasi (B.Isakov) pillachilik sohasida qisqa muddatli o‘quv kurslarini tamomlagan xotin-qizlarning doimiy va mavsumiy ishlarga qabul qilinganligi hisobini **“yangiish.mehnat.uz”**platformasi orqali yuritib borsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosarlari (N.Mamadiyarova, A.Rizayev) zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **S.Astonov**

Bulung‘ur tuman hokimining
2025-yil 12-fevraldagi
41-7-93-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Bulung‘ur tumanida xotin-qizlarni pillachilik sohasida qisqa muddatli o‘quv kurslarida o‘qitish va ularning sohada bandligini bosqichma-bosqich ta’minlash tizimini tashkil etish bo‘yicha
YO‘L XARITASI

T/R	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas’ullar
1.	Tumandagi ishsiz va band bo‘lmagan aholi, shu jumladan, xotin-qizlar ro‘yxatini shakllantirish	1. Mahallalar kesimida ishsiz va band bo‘lmagan aholini, birinchi navbatda xotin- qizlarning ro‘yxatini shakllantirish hamda tuman (shahar) hokim o‘rinbosarlari - oila va xotin-qizlar bo‘limi boshliqlariga taqdim etish. 2. Pillachilik sohasida qisqa muddatli o‘quv kurslarida o‘qish istagini bildirgan xotin-qizlarning yakuniy ro‘yxatini tuman hokimi o‘rinbosar-Oila va xotin- qizlar bo‘limi boshlig‘iga 3. Mahalla kesimida shakllantirilgan ro‘yxatni Tuman « Zar Oltin Pilla» MChJga taqdim etish.	Har chorakning so‘nggi oyi 15-sanasi har chorakning so‘nggi oyi 25-sanasi Har chorakda	Qishloq xo‘jaligi bo‘yicha tuman hokimining o‘rinbosari, Oila va xotin- qizlar bo'limi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi, tuman “Zar Oltin Pilla” MChJ, Pilla brigadirlar, MFY faollari va Lider tadbirkorlar
2.	Pillachilik sohasida qisqa muddatli o‘quv kurslarini	1. O‘quv kurslari tashkil etilishi belgilangan binolarni tayyorlash.		Qishloq xo‘jaligi bo‘yicha tuman

	o‘qitishga mo‘ljallangan joylarni tayyorlash.	2. O‘quv kurslari tashkil etiladigan maydonlarda tut ekish sirlari, plyonka ostida boqish, “etajerka” usuli, ipak qurtiga bargni maydalab berish, 3 yoshgacha boqib tarqatish uslublarini amaliyotda tushuntirib berish hamda kerakli jihozlarni yetkazish va tayyor holga keltirish	O‘quv kurslari boshlanishidan bir hafta oldin	hokimining o‘rinbosari, Lider tadbirkorlar, tuman “Zar Oltin Pilla” MChJ, Oila va xotin-qizlar bo‘limi
3.	Pillachilik sohasida qisqa muddatli o‘quv kurslarini tizimli tashkil etish.	1. Har chorakda 2 kunlik o‘quv kurs (mashg‘ulot)larini tashkil etish. 3. O‘quv kurslarini yakunlagan tinglovchilarga sertifikat taqdim etish.	Har chorakning so‘nggi oyi 15-sanasiga qadar kelishuv asosida o‘quv kurslari yakunida	Qishloq xo‘jaligi bo‘yicha tuman hokimining o‘rinbosari, Oila va xotin- qizlar bo'limi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi, tuman “Zar Oltin Pilla” MChJ, Pilla brigadirlar, MFY faollari va Lider tadbirkorlar
4.	Pillachilik sohasida qisqa muddatli o‘quv kurslarini tamomlagan tinglovchilarni salohiyatiga qarab doimiy ishga joylash yoki mavsumiy pillakor sifatida ro‘yxatdan o‘tkazish	1. O‘quv kurslarini yakunlagan tinglovchilar bilan doimiy yoki mavsumiy mehnat shartnomasini o‘rnatilgan tartibda tuzish. 2. Mehnat shartnomalari tuzilgan Tinglovchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni umumlashtirish va	2025-2026-yillar o‘quv kurslari yakuni bilan	Qishloq xo‘jaligi bo‘yicha tuman hokimining o‘rinbosari, Oila va xotin- qizlar bo'limi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik

		tahlil qilish.		bo‘limi, tuman “Zar Oltin Pilla” MChJ, Pilla brigadirlar, MFY faollari va Lider tadbirkorlar
5.	Salohiyatli tinglovchilar xonadoniga ipakchilik sanoatini olib kirish hamda kasanachilik asosida bandligini ta’minlash.	1. Xonadoniga sanoat kirib borish istagidagi tinglovchilar ro‘yxatini shakllantirish. 2. Ipakchilik klasteri tomonidan qo‘lda ipak gilam va ipak mato to‘qish istagidagi tinglovchilarni uch oy davomida o‘qitish. 3. Qo‘lda ipak gilam va ipak mato to‘qish uslublarini o‘rgangan tinglovchilar xonadoniga o‘rnatilgan tartibda dastgohlar yetkazib berish. 4. Ipakchilik klasterlari tomonidan zarur xomashyolarni xonadonlarga yetkazib berish. 5. Ipakchilik klasterlari tomonidan tayyor bo‘lgan mahsulotlarni shartnoma asosida yig‘ib olish	Har chorakda doimiy ravishda o‘quv kurslari yakuni bilan doimiy ravishda	Qishloq xo‘jaligi bo‘yicha tuman hokimining o‘rinbosari, Oila va xotin- qizlar bo'limi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi, tuman “Zar Oltin Pilla” MChJ, Pilla brigadirlar, MFY faollari va Lider tadbirkorlar
6.	Ipak qurti ozuqa bazasini qishloq hududlarida rivojlantirishni tashkil etish.	1. Aholi xonadonlariga qarashli tomorqa atrofida tut ko‘chatlari ekish. 2. Aholi xonadonlariga qarashli tomorqa yerlarida 1-1,5 sotixlik	2025-2026-yillarda reja asosida belgilangan hududlarda 202	Qishloq xo‘jaligi bo‘yicha tuman hokimining o‘rinbosari, Massiv raislari, tuman “Zar Oltin Pilla” MChJ

		o‘rma tutzorlar tashkil etish. 3. “Zar Oltin Pilla” MChJ tomonidan shartnoma asosida tut ko‘chatlarini hududlarga yetkazib berish.	5-2026- yillarda doimiy	